


(dastlabki ma'lumotlar)

2020 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1315,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,2 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (32,5 %), transport xizmatlari (18,9 %), moliyaviy xizmatlar (16,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,0 %) ustunlikka ega.

2020 yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	1315,8	109,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	79,2	115,8
Moliyaviy xizmatlar	214,5	133,7
Transport xizmatlari	248,2	105,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	214,8	105,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	27,6	102,5
Savdo xizmatlari	427,2	107,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	38,9	102,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	49,2	90,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	26,5	111,4
Ijara xizmatlari	27,0	104,3
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	34,7	104,1
Shaxsiy xizmatlar	90,3	101,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	17,1	95,6
Boshqa xizmatlar	35,6	101,7




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (133,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,8 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2020 yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 248,3 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2020 yil yanvar oyi) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 679,6 mlrd. so'mga ko'paydi.

2020 yil yanvar-fevral oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (73,9 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (35,5 mlrd. so'mga) hamda moliyaviy xizmatlar (80,8 mlrd. so'mga) xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2019 yilning mos davrida savdo xizmatlari – 62,2 mlrd. so'm, transport xizmatlari 20,4 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar - 66,4 mlrd. so'mga oshgan.






NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (90,2 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (95,6 %), boshqa xizmatlar (101,7 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2020 yil yanvar-fevral oylarida uning ulushi 32,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (18,9 %), moliyaviy xizmatlar (16,3 %), shaxsiy xizmatlar (6,9 %) egallaydi.

2020 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)


Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

2020 yil yanvar-fevral oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (86,5 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 13,1 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi.






NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2020 yil yanvar-fevral oylarida uning ulushi 78,8 % ni tashkil etadi.

2020 yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 15,6 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,5 % ni egallaydi.

2020 yil yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (96,3 %) egallaydi.

Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 2,6 % ni tashkil qiladi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,7 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmlarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Telekommunikasiya xizmati - 96,3 %

Nashriyotchilik
xizmati - 2,6 %

Axborot sohasidagi
xizmatlar -
0,7 %


Kompyuter
programmalarini ishlab
chiqarish xizmati -
0,3 %

Kino, videofilm va
televideniya dasturlari
ishlab chiqarish xizmati
- 0,1 %

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



2020 yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 214,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 133,7 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (91,1 %) tashkil etadi.




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 27,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019 yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'atlari 102,5 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,1 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 81,0 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 19,0 % ga to'g'ri keladi.



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga o'sish sur'ati, %

2020 yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 473,0 ming.so'mga teng bo'ldi. 2019 yil yanvar-fevral oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 81,4 ming.so'mga oshdi.

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28